

<https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1017>

THE PRACTICAL IMPORTANCE OF USING THE LMS MOODLE SYSTEM IN LANGUAGE EDUCATION

M.D. Abduraxmanova

JIDU

MAbduraxmanova@uwed.uz

+998909444289

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda aralash ta'limni amalga oshirishda eng maqbul resurslar to'plamiga ega bo'lgan Moodle tizimining afzal jihatlari ilmiy-amaliy tahlil qilib chiqilgan. Mazkur ish Oliy o'quv yurtida til ta'limida aralash ta'limni tashkil etish jarayoniga bag'ishlangan bo'lib elektron muhit va resurslardan foydalangan holda integratsiyalashgan shaklga o'tishni amalga oshirishning didaktik vositasi sifatida aralash ta'lim shaklining salohiyati va imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Muallif tizimdagi kurs elementlari misolida Moodle muhitidan foydalanish imkoniyati va tajribasini yoritib beradi.

Kalit so'zlar: elektron ta'lim, aralash ta'lim, til ta'limida AKT, LMS, kurs elementi, MOODLE tizimida talaba bilimni nazorat qilish metodlari; MOODLE tizimida mustaqil ishlarni tashkillashtirish, interaktiv ma'ruza, mustaqil ta'lim shakli va usullari.

Abstract. In this study, a scientific-practical analysis of the preferred aspects of the Moodle system, which has the most optimal set of resources in the implementation of mixed education, was carried out. This work is devoted to the process of organizing mixed education in language education in a higher institution and the potential and opportunities of mixed education form as didactic means of carrying out the transition to an integrated form using electronic environment and



resources will be considered. The author highlights the possibility and experience of using Moodle environments as an example of course elements in the system.

Keywords: e-learning, mixed education, ICT in language education, LMS, course element, techniques of controlling student knowledge in MOODLE system; Organization of independent work in MOODLE system, interactive lecture, form and methods of Independent Education.

Аннотация. В данном исследовании был проведен научно-практический анализ преимуществ системы Moodle с оптимальным набором ресурсов для реализации смешанного обучения. Данная работа посвящена процессу организации смешанного обучения языковому образованию в высшем учебном заведении и рассматривает потенциал и возможности смешанной формы обучения как дидактического средства осуществления перехода к интегрированной форме с использованием электронной среды и ресурсов. Автор освещает возможность и опыт использования среды Moodle на примере элементов курса в системе.

Ключевые слова: электронное обучение, смешанное обучение, ИКТ в языковом образовании, ЛМС, элемент курса, методы контроля знаний учащихся в системе MOODLE; организация самостоятельной работы в системе MOODLE, интерактивная лекция, формы и методы самостоятельного обучения.

LMS tizimlari zamonaviy axborot texnologiyalari va masofaviy ta'lim tizimini tashkil etishi mumkin bo'lgan zamonaviy texnologiyalardan biridir. Yangi texnologiyalar negizida (masalan, "Moodle" tizimida) individuallashtirilgan ta'lim metodikasini ishlab chiqish, talabning bilimlarini shakllantirish va takomillashtirish hamda egallagan bilim darajasini aniqlash kabi vazifalar hal qilinadi. Ta'lim jarayonida masofali o'qitish texnologiyalaridan foydalanish ta'lim mazmuni, shakllari va usullarining ijobiy o'zgarishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.



Ma'lumki, barcha ta'lim tizimlari singari masofaviy o'qitish tizimi o'z maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega.

Moodle kuchli, pedagogik dasturiy ta'minot to'plami bo'lib, unda biz onlayn ta'lim va onlayn darslarni tashkil qilishimiz mumkin. Moodledan foydalanib, o'qituvchi kurslar tuzishi, ularni matnlar, yordamchi fayllar, taqdimotlar, so'rovnomalar va boshqalar ko'rinishidagi tarkib bilan to'ldirishi mumkinligini bilamiz. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Moodle boshqa LMS tizimlarga qaraganda, eng ko'p qo'shimcha plugin va modullari mavjud bo'lgan dasturiy majmua bo'lib, bepul tizim hisoblanadi. Moodledan foydalanish uchun har qanday veb-brauzer bo'lishi kifoya, bu esa ushbu o'quv muhitidan foydalanishni o'qituvchi uchun ham, talabalar uchun ham qulay qiladi. Talabalarning bajargan ishlariga o'qituvchi baho va sharhlar berishi mumkin.

Hozirgi vaqtda dunyoning aksariyat ta'lim muassasalari o'z masofaviy ta'lim tizimlarini tashkil etishda Moodle dasturiy majmuasini joriy etmoqdalar. Shuningdek, respublikamizdagi ko'plab ta'lim muassasalari virtual ta'lim muhiti sifatida aynan Moodle dasturiy majmuasidan foydalanib kelmoqda. Xususan, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti <https://moodle2.uwed.uz/> URL manzilida masofaviy elektron ta'lim tizimini tashkil etdi va ta'lim jarayonida keng qo'llamoqda.

Boshqa LMS tizimlariga qaraganda Moodle tizimida keng imkoniyatlar mavjud:

- ✓ kurs mazmunini boyitish uchun o'nlab kurs elementlari;
- ✓ talabalar uchun resurslarning bir qancha turlari;
- ✓ foydalanuvchi xohlagan tilida ishlay olish imkoniyati;
- ✓ har bir kursda darslar modullarga bo'lib tashkil etilishi va b. [2]

Odatda til ta'limida bevosita o'qituvchi bilan birga ishlash samarali hisoblanadi. Biroq oliy ta'lim tizimida talabaning mustaqil ishlariga salmoqli soat ajratilganini hisobga olsak, ajratilgan auditoriya soatlarida o'quv dasturini qamrab olish qiyin. Til o'rganishda amaliyot katta ahamiyat kasb etishi sir emas, shu



ma'noda talabaning mustaqil ta'limi uchun yetarli materiallar va topshiriqlar bazasini yaratish maqsadga muvofiqdir. Bunda esa Moodle tizimining ahamiyati katta. Shu maqsadda biz ham til ta'limini tashkil etishda ushbu tizimdan foydalanmoqdamiz.

O'zbek va rus tillari / Узбекский и русский языки

В начало / Курсы / Til ta'limi markazi / Яз. центр / O'zbek va rus tillari / Узбекский и русский языки

Категории курсов:

Поиск курса ПРИМЕНИТЬ ?

▶ **DAVLAT TILIDA ISH YURITISH VA O'ZBEK TILINI INTENSIV O'RGANISH KURSLARI**

▶ **JAHON ADABIYOTI**















▶ **NUTQ MADANIYATI VA NOTIQLIK SANATI (Iqtisodchining nutq madaniyati va notiqlik san'ati)**

▶ **Mutaxassisning ilmiy va rasmiy nutq asoslari (ma'ruza)**

▶ **MUTAXASSISNING ILMIY VA RASMIY NUTQ ASOSLARI (XM -2020)**



Moodle tizimi talabalar ishini tashkil etish uchun kursga interaktiv elementlarni qo'shishni nazarda tutadi. Avvalo, bu aloqa shakllariga forumlar, suhbatlar, xabar almashish; elektron darslar, seminarlar, hamkorlikdagi tadbirlar, masalan, lug'at tuzish, bilimlarni tekshirish shakllari: testlar, topshiriqlar, so'rovnomalar kiradi. Interfaol manbalar va dars elementlari bilan ishlash talabalarning faolligini talab qiladi. Kursning interaktiv elementlari bilan ishlash tizim yoki o'qituvchi tomonidan baholanadi va pirovardida kursni o'zlashtirish uchun yakuniy bahoni belgilashga imkon beradi.

Til o'qitishda kurs elementlari va resurslaridan maqsadli foydalanish muhim. Til o'qitish 4 aspektga asoslangan bo'lsa, ushbu ko'nikmalarni talabada shakllantirish uchun beriladigan materiallar: leksik minimum, nazariy ma'lumot, tinglash uchun audiomateriallar, topshiriqlar, mashqlar, matn ustida ishlash bo'yicha vazifalar, namunalar mantiqiy ketma-ketlikda berilishi bilan bir qatorda, ushbu materiallarni taqdim etuvchi kurs elementi yoki resurslari ham to'g'ri tanlangan bo'lishi zarur. Jumladan, Chat, Forum elementlari kurs ishtirokchilari o'rtasida o'zaro yozma muloqot qilish, foydalanuvchilar o'rtasida muzokara olib borish imkonini yaratadi, bu esa yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishda, ayniqsa, muhokama yoki tahlilda tavsiya etiladi. Muzokara mobaynida foydalanuvchilar matnli va grafikli ma'lumotlardan foydalanishlari mumkin. O'qituvchi butun bir jarayonni nazorat qilib borib baholash imkoniyatiga ega bo'ladi.

- 

RASMIY USLUB O'RGANISH QANDAY NATIJA BERDI?
Редактировать ▾  
- 

RASMIY USLUBNING XUSUSIYATLARI
Редактировать ▾ 
- 

RASMIY NUTQ
Редактировать ▾ 
- 

DIPLOMATIYADA RASMIY NUTQ
Редактировать ▾  



E.A`zamning "BESH PANJAGA MENGZAMANG" maqolasi muhokamas

Редактировать  

Eng samarali o`quv elementlardan biri – ma`ruza elementidan amaliy mashg`ulotlarda unumli foydalanish mumkin, uning yordamida istagan ma`lumotni taqdim etish va materialni talaba qay darajada mustaqil o`zlashtira olganini tekshirish imkoni keng, usullari qiziqarli, nazorat qilish uchun turli xildagi test savollaridan foydalanish mumkin. Shu bilan birga talaba yangi mavzularni mustaqil o`rgana oladi. Moodle platformasida joylashtirilgan vazifalar xilma-xil bo`lishi talabalarning individual iste`dodlari va qobiliyatlariga mos kelib, murakkabligi darajasiga ko`ra farqlanishi, ayni paytda ta`lim oluvchilarning eslab qolish qobiliyatlariga ham bog`liq bo`lishi ham mumkin. Bunday xilma-xillik kuchsiz talabalarni birgalikda ishlashga jalb qilishga ko`maklashadi, shu bilan birga kuchli talabalarga yuqoriroq talablar qo`yishga yordam beradi. Moodlega materiallarni kiritish va topshiriqlarni berishda tizimli yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Talaba mustaqil o`zlashtirish jarayonida "ma`lumot tanqisligi" muammosiga duch kelmasligi kerak. O`qituvchi oldindan Moodle platformasiga materilani to`g`ri joylashtirish uchun uning texnologik xaritasini tayyorlab olishi tavsiya etiladi. Bunda mavzuga tegishli tushuncha va terminlarning izohidan tortib, nazorat testlarigacha bo`lgan jarayon qamrab olinishi lozim.

K

Konspekt

lotincha *conspetus* so`zidan olingan bo`lib sharh, ocherk ma`nolarini anglatadi, matndagi asosiy sharhlovchi va dalillovchi qoidalarni qisqa, o`zaro bog`liqlikda bayon qilish. Konspekt quyidagi ko`rinishda bo`lishi mumkin



Kurs ishi

oliy va o`ta maxsus ta`lim muassasalari talabalari tomonidan muayyan muddatda hamda muayyan talablar bo`yicha bajariladigan vazifa. Odatda kurs ishi asosiy ixtisosligi bo`yicha yoziladi



R

Referat

Referat lotincha "*referre*", ya`ni xabar qilmoq, bildirmoq so`zidan olingan bo`lib 2 xil tushuniladi:

1. Muayyan mavzudagi tegishli adabiyotlar va manbalar sharhini o`z ichiga oluvchi axborot;
2. Ilmiy ish, kitob va h.k. mazmunining qisqa sharhi.



Shu bilan birga web-havola, kitob, qo‘shimcha qo‘llanmalar, kitobga berilgan taqriz, jurnal havolalari, bibliografik ro‘yxat kabi manbalar bazasini berilsa, talabaga berilgan mustaqil ishlarni tayyorlashda “zarur kutubxona” bo‘ladi.

M.Abduraxmanova	Язык и стиль изложения судебных актов. Научно-методические рекомендации	
M.Abduraxmanova	ma`muriy ish qog`ozlari	
M.Abduraxmanova	Практикум по деловому стилю	
M.Abduraxmanova	Yuridik til va nazariyasi	
M.Abduraxmanova	Maqolani qanday yozish kerak	
M.F\Abduraxmanova	O`zbek tili	



ILMIY ISH TURLARINI YOZISHGA TAYYORGARLIK


[Редактировать](#) ▼

Shu asnoda biz LMS MOODLE tizimi va uning tarkibini nazariy jihatdan o‘rganib, amaliyotda o‘z kursimizni tashkil qildik va kurs elementlarini yaratib oldik. (Berilgan rasmlar yaratilgan kursimizdan olindi).

Demak, oliy ta’limda elektron ta’limning ahamiyati doimiy ravishda oshib bormoqda. Ayniqsa, hozirgi pandemiya sharoitida ta’lim muassasalari elektron ta’limni keng joriy etmoqdalar, chunki elektron ta’lim nafaqat favqulodda bir chora, balki, raqamli dunyoda yashovchi zamonaviy talabalarning ehtiyojlarini qondiradi, pedagogik yangiliklarni rag‘batlantiradi, universitet ichi va universitetlararo darajalarda bilim almashinuviga va hamkorlikka yordam beradi, masofaviy o‘qitish imkoniyatlarini kengaytiradi va turli toifadagi talabalar uchun ta’lim olish imkoniyatini soddalashtiradi [3]. Haqiqatan ham, zamonaviy axborot



texnologiyalari ta'limni global rivojlanish tendensiyalariga javob berishga va tez sur'atlarda o'zgarayotgan zamonaviy dunyoga moslashishga imkon bermoqda, talabalar ko'proq mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish zarurligini his qila boshladilar, o'qituvchi hamda talabaning o'rni va roliga munosabat o'zgardi. O'qituvchi uchun ham yangi raqamli ta'lim muhiti darsni zamonaviy usulda tashkil etish, ijodkorona yondashuv borasida sinov va tajriba maktabi bo'lyapti. Aynan shu maqsadda axborot texnologiyalaridan foydalanish, mutaxassislarning umumiy ma'lumoti va kasbiy tayyorgarligining sifatini oshirish uchun jahon andozalariga javob beruvchi axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasida ta'limda elektron ta'limning dolzarbligi davlat darajasida tan olindi va qator qonun va qarorlar ishlab chiqildi.[4]. Shunday ekan, ta'limning bir qismini elektron muhitda tashkillashtirish zarurligi, shuningdek, aralash ta'limning imkoniyatlari kattaligi va rivojlanish istiqbollari porloqligiga shubha yo'q.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Костина Е.В. Модель смешанного обучения (blended learning) и ее использование в преподавании иностранных языков // Известия вузов. Серия: Гуманитарные науки. 2010. №1(2). С.141-144.
2. Баженов Р.И. Использование системы Moodle для организации самостоятельной работы студентов // Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов. 2014. № 3 (93). С. 174-175.
3. Фомина Антонина Сивреновна Смешанное обучение в вузе: институциональный, организационнотехнологический и педагогический аспекты- Теория и практика общественного развития 2014, № 21-272 стр²

